

# Boysun bekligi aholisi demografik jarayonlari

(XIX asr oxiri - XX asr boshlari)

**Xolmuminov Xusan Eshmo‘minovich,**

TerDU Jahon tarixi kafedrası mudiri,  
tarix fanlari doktori, professor.

**Telekulov Gauxar Seydullayevich,**

M. Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston  
universiteti dotsenti



### **Annotatsiya:**

*Ushbu maqolada Surxon vohasi aholisi ijtimoiy turmush darajasi hamda demografik jarayonlari, aholi milliy tarkibi hamda xo‘jalik hayoti bilan bog‘liq masalalari ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, aholi demografik jarayonlaridagi migratsiya masalalari yoritib o‘tilgan.*

### **Kalit so‘zlar:**

*Boysun, Denov, Sherobod, beklklari, demografik jarayonlar, beklklarga tegishli amlokliklar va ulardagi aholi xo‘jaliklarining mashg‘uloti, o‘zaro savdo aloqalar.*

## **ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ НАСЕЛЕНИЯ БАЙСУНСКОГО БЕКСТВО**


(КОНЕЦ XIX ВЕКА – НАЧАЛО XX ВЕКА)

### **Аннотация:**

*В данной статье научно анализируются вопросы, связанные с социальным уровнем жизни и демографические процессы населения южных оазисов. Также освещены вопросы миграции в демографических процессах населения.*

### **Ключевые слова:**

*Байсун, Денау, Шерабадские бекство, демографические процессы, взаимные торговые отношения.*



# DEMOGRAPHIC PROCESSES OF THE POPULATION BOYSUN PRINCIPALITIES (LATE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES)

## Abstract:

*This article scientifically analyzes the social standard of living and demographic processes, national composition of the population and issues related to economic life of the population of the southern oases of the Bukhara emirate. Also, migration issues in the demographic processes of the population are covered.*

## Keywords:

*Boysun, Denov, Sherabad, principalities, demographic processes, estates belonging to the principalities and the occupation of the population's households in them, mutual trade relations.*

O'zbekiston janubiy hududlarida kechgan demografik jarayonlarni tadqiq qilish, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Janubiy vohalar bekliliklari joylashuvining tabiiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, xo'jaligida va moddiy madaniyatida o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Shuningdek, bu davrda janubiy vohalar bekliliklari aholisining ijtimoiy turmush tarzi va demografik holatlarida milliy, etnik tarkibning xilma-xilligi bilan ham ajralib turgan. Ushbu davrda Boysun, Denov, Sherobod, bekliliklari aholisining ko'pchilik qismini o'zbeklar va tojik tashkil etsada, ma'muriy markazlar hisoblangan shaharlarda aholi milliy tarkibida ba'zan boshqa millat vakillarining kam sonli guruhlari istiqomat qilgan.

Tadqiq etilayotgan davrda Surxon vohasida aholining asosiy qismi o'troq holda sersuv vohalarda istiqomat qilib ularning xo'jaligida dehqonchilik hamda chorvachilik asosiy o'rin tutgan[1:89]. XIX asr oxirlarida B.X.Karmishevaning bergan ma'lumotlari ko'ra Sherobod bekliligida 33 390 ta, Denov bekliligida 44 362 ta, Boysun bekliligida 26 685 ta aholi ro'yxatga olingan[2:74].

Boysun bekligi 1868-yildan alohida mustaqil beklilik sifatida qayd etiladi. Tadqiq etilayotgan davrda voha hududlaridagi bekliliklar hamda ularga tegishli bo'lgan amlolliklar soni ham o'zgarib turgan. Bu jarayonlar Bekliklarga tegishli hududlarning kengayishi amir oldida ko'rsatgan xizmatiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. 1868-yilda Boysun bekliligiga xizmatlari uchun hududdan uzoqda joylashgan Zarabog', Buzravot, Poshxo'rd va Kakaydi amlolliklari ham qo'shib berilgan. Natijada Boysun bekligi Boysun, Yaumchi, Rabot, Darband, Sayrob, Xatak,

Zarabog', Poshxo'rd, Buzravot, Kakaydi amlolliklaridan iborat bo'lgan. [3:113].

Boysun bekliligiga qarashli Xatak amlolkorligida Tangi, Chorvoq, Bedak, Xo'janqo, Zarautsoy, Yoriqsoy, Chinor, Kalapo'shqiya singari qishloqlardan iborat bo'lgan. Dastlab bu qishloqlarning markazi Bog'lidara edi. Shundan keyin aholining asosiy qismi Chorvoq qishlog'iga ko'chib o'tadi, bora-bora bu joy Xatak deb yuritila boshlaydi. Aholining bog'-rog'lariga aylantirilgan Markaziy Xatak qo'rg'oni esa, Bog'lidara nomini oladi[4:40].

Surxon vohasi hududidagi Sherobod bekligi ham geografik joylashuviga va aholi soniga ko'ra katta bekliliklardan biri sanalgan. Sherobod bekligi hududida joylashgan Tallashqon amlollikida 2800 ta aholi xo'jaliklari istiqomat qilgan bo'lsa, Saidobodda 3300, Tallimaronda 2600, Gilambopda 3000, Jarqo'rg'onida 2000, Solihobodda 300 ta aholi xo'jaliklari istiqomat qilgan. Sherobod bekligi geografik hududiy joylashuvi janubda Amudaryoning Qorakamar kechuvidan Pattakesargacha (Sherobod bekliligida to'rtta kechuv bo'lgan: Pattakesar, Sho'rob, Cho'chqaguzar va Qorakamar), shuningdek, sharqda Surxondaryoning o'ng qirg'og'i, shimoli-g'arbda esa Istara arig'idan Tallashqon va Xo'janqo tog' etaklarigacha bo'lgan hududlarni egallagan. [5:113].


Surxon vohasi hududida joylashgan Boysun bekligi tabiiy-geografik joylashuviga ko'ra tog' yon bag'irlarida joylashgan bo'lib, aholining turmush tarzidagi asosiy mashg'uloti bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik sohalari muhim o'rin egallagan[6:64].

Bu davrda sayyoh olimlarning qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Boysun tog' bag'ridagi mustahkam qad ko'targan shahar bo'lib, bu yerda bek qo'rg'oni joylashgan. Qo'rg'on tosh devorlar bilan o'ralgan bo'lib, 2 ta darvozasi bo'lgan[3:17]. Shaharda hunarmandlar mahallari, temirchilik, zargarlik sohalari kabi hunarmandchilik sohalari juda yaxshi rivojlangan[8:148].

Boysun bekligi o'zaro savdo aloqalarida ham muhim o'rin tutgan. Hunarmandlar o'zlari tomonidan yasalgan mahsulotlarni dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari bilan o'zaro ayirbosh qilishgan. O'zaro savdo aloqalarida, boysun hunarmandlari yasagan xilma xil mahsulotlar, oziq ovqat mahsulotlari hamda boysun kashtado'zlari tomonidan to'qilgan, chiroz, so'zana, do'ppi va boshqa mahsulotlar xaridorlarning e'tiborini tortib kelgan[2:114].

Surxon vohasida Boysun shahri hunarmandlari va ular tayyorlagan mahsulotlar haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Boysun duradgor ustalarining tosh va yog'ochdan ajoyib imoratlar qurishlari, usta hunarmandlar "sopol va yog'ochdan turli-tuman o'yinchoqlar yasashlari", Boysun ayollari "kashtachilik va do'ppido'zlikka mohir chevar" ekanligi haqida ma'lumotlar qoldirgan. Bu yerda har yili 2-3 marta Buxoro amiriga aravalarga yuklangan guruch, bug'doy, quruq va ho'l meva, kashtalar, zarbop choponlar, ot, qo'y, tuya, qoramol ko'rinishidagi hadyalar yetkazib turishi xususida ham ma'lumotlar keltirilgan[10:64].

Boysun shahri bilan tutash Shayit qishlog'i va uning atrofida bir nechta bozorlar, hunarmandchilik guzari, zargarlik guzari joylashgan bo'lib, bular Zarguzar hunarmandchilik guzarlari hisoblangan. Shuningdek, Boysun shahrida Charmgar-Charmguzar, qassobguzar ya'ni qassoblar guzari ham alohida guzarlar sifatida shakllangan. Boysundagi savdo bozorlari asosan chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'minlangan bo'lib, bundan tashqari gazlama va



uzumchilik bilan shug'ullanib shahar aholisini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlab turgan. Boysun shahri tog' darasidan chiqib kelayotgan kichkina daryo suvi bilan ta'minlangan. Shuningdek, Avlod, Sariosiyo va Kuchkak qishloqlari Boysun shahrini savdo mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim o'rin tutgan. Boysun shahri bilan bog'liq bo'lgan Passurxi, Qo'rg'oncha, Qorabayin, Bibishirin, Shayit ariq, Bog'ibola, Chinor, Poygaboshi, Sho'roy qishloqlari Boysun shahri bilan bevosita savdo-sotiqdami amalga oshirganlar. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Boysun va uning atrofidagi Bibishirin, Bog'ibola, Chinor, Ko'kchi qishloqlarida asosan chig'atoy tojiklari istiqomat qilishgan[11:236]. Shayit, Gaza, Poygaboshi, Sho'roy va Qorabayin qishloqlarida chig'atoylar o'zbeklar (qo'ng'irotlar) bilan birgalikda yashagan. Shayit qishlog'ida qo'ng'irotlar zargarlar guzarida istiqomat qilishgan. Gaza va Shayit qishloqlarida Qarshi vohasidan kelgan uncha katta bo'lmagan o'zbeklar istiqomat qilgan. Boysuning qizil koriz qishlog'ida turli joylardan kelib qolgan chig'atoylar ichida toqchi-o'zbeklar ham istiqomat qilgan. Ular Boysun shahrining sug'oriladigan yerlarining yuqori hududlarida, adir yonbag'irlarida istiqomat qilishgan[3:247].

XX asr boshlarida Boysun shahri aholisining etnik tarkibida asosan o'zbek qo'ng'irotlari va tojiklar ko'proq istiqomat qilishgan. Biz o'rganayotgan davr Boysun shahri haqidagi ma'lumotlarning ko'pchiligi siyosiy va etnografik xarakterga ega. Bu davrda o'tkazilgan aholini ro'yhatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Boysun rayonida 21 ta qishloq yig'inlari bo'lib, ularda 4352 ta o'zbek oila



xo'jaliklari hamda 2672 ta tojik oila xo'jaliklari istiqomat qilgan. Shuningdek, Bandixonda-55, Dashtig'ozda-12, Darbandda-475, Duobada-150, Munchoqda-43, Pasurxida-459, Sayrobdada-522, Toshpo'latda-26, O'rta machayda-36, Xovuzda- 222, Xo'ja bulg'onida-327 shuningdek, Shayit qishloq yig'inida -505 ta tojik oilalari istiqomat qilishgan[12:64]. Bu davrda janubiy vohalardagi Boysun, Sherobod hududlaridagi aholi manzilgohlarida o'zbek hamda tojik millatiga mansub aholi vakillari ko'proq istiqomat qilgan[13:48].

Bu jarayonlarni 1926-yilda amalga oshirilgan aholini ro'yhatga olish ma'lumotlari asosida tuzilgan ushbu jadvalda ham ko'rishimiz mumkin[12:255].

Rayonlar va ularning markazlarini nomi	Qishloq yig'inlari	Aholi xo'jaligi soni				Aholining jinsiy tarkibi		Jami aholi soni
		O'zbek oilalari da	Tojiklar	Turkman	Boshqa millat vakillari	Erkaklar	Ayollar	
1.Sariosiyo	21	3492	2273	-	148	15960	14320	30280
2.Boysun	21	4352	2672	-	-	16860	15244	32104
3.Denov	33	8490	1687	3	125	27062	24799	51861
4.Sherobod	28	7568	1160	-	231	20043	18290	39333
5.Jarqo'rg'on	14	4742	5	63	56	11352	10035	21387
6.Pattekesar	9	1627	62	1116	91	6485	5786	12271
Temir yo'ldan uzoqda joylashgan aholi punktlari	-	11	-	-	128	153	44	197
Okrug bo'yicha jami	126	30282	7859	1182	779	97915	88518	186433

Shuningdek, Ko'hitang tog'ining sharqiy qismida Zarabog', Qorabog', Poshxurd kabi ko'plab qishloqlarda va Sherobod shahri, uning atrofidagi Chig'atoy, Qishloqbozor, Seplon, Novbog', Gegirdak kabi aholi punktlarida turli etnik guruhlar bilan aralash yashaganliklari ko'rsatib o'tilgan[14:147]. Boysun shahri va uning atrofidagi qishloqlarda esa chig'atoylar va xo'jalarning bir qadar tig'iz joylashganliklarini ko'rishimiz mumkin[15:36].

Surxondaryo havzasida, ayniqsa uning yuqori qismida o'zbek va tojik tilli chig'atoylarning ko'plab qishloqlarni uchratish mumkin. Ular tog'li hududlarda joylashgan Dug'oba, Luchchak, Debolo, Sangardak, Xubon, Xufar, Sina, Sariosiyo, Yurchi kabi aholi punktlarida yashaydilar. Shu bilan birgalikda Denov shahrida va undan g'arbda Katta Vaxshivor va Kichik Vaxshivor qishloqlarida boshqa etnik guruhlar bilan aralash holda tarqalgan [16:233]. Surxon vohasining shimoliy hududlaridagi aholining etnik tarkibi o'ziga xos tarzda hisoblanadi. Aholi xo'jaligida ko'proq chorvachilik ustun turgan aholi vakillari bo'lgan qarluqlarning ba'zi guruhlarida esa yuqori Surxondaryoda Sariosiyo tumanining Tog'chiyon, Boyqishloq, Pozilko'chdi, Ko'Imozor, Cholmiyon, Sarimozor, Bo'yrapo'sh, Neloba kabi qishloqlarida tarqalganlar. Ularning ko'pchiligi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yarim o'troqlikda hayot kechirganlar[15:37]. Turk, kaltatoy va barloslar o'rganilayotgan hududda kamchilikni tashkil etadi. Turklarning kamsonli guruhlarida Sherobod vohasida, Boysun tog'laridagi qishloqlarda tarqalganlar. Kaltatoylar asosan

Sangardak va Obizarang daryolari oralig'idagi qishloqlarda, Yurchi shahrida va qo'yi Sherobodaryo vohasidagi Oq-qo'rg'on qishlog'ida joylashganlar. Barloslar esa yuqori Surxondaryo vohasidagi Dashnobod, quduqli, Shoqishloq va Qorabandi kabi qishloqlarda istiqomat qilgan [17:204]. Qo'ng'irotlar esa butun vodi bo'ylab keng tarqalgan va bu yerda aholining ko'pchiligini tashkil etadi. Ular Boysundaryo, Sherobodaryo havzasi Amudaryo vodiysining shimoli va janubi-g'arb tomonlarida ayniqsa zich joylashgan. Ularning xo'jaligida chorvachilik yetakchi o'rinda turgan. Yuz urug'i esa Surxon vodiysining yuqori va o'rta qismida qo'ng'irotlarga bevosita qo'shni bo'lib yashaganlar. Surxon vodiysida yuzlarning yirik bo'linmasi turkman-juzlar ham keng tarqalgan, ular joylashgan joylar ilgari sug'orish uchun qulay bo'lgan va oktyabr to'ntarishigacha doimiy ravishda o'troqlasha boshlaganlar. Bobotog'ning shimoliy qismida va Sherobod bekligi hududlarida do'rmonlar ko'proq istiqomat qilishgan. Shuningdek, jaloyirlar esa Surxondaryoning o'ng qirg'oq qismida joylashgan jaloyir nomli qishloqda yashaydilar. Shuningdek, vohada arablar, eroniylar, lo'lilar, afg'onlar va ilgari yoki ma'lum vaqtlar davomida kelib qolgan ruslar, turkmanlar, qirg'izlar va yahudiylar[2:69] kabi etnik guruhlarining bir qancha vakillari ham tarqalgan.

Xulosa o'rmida ta'kidlash kerakki, Surxon vohasi hududidagi bekliliklar aholisi milliy tarkibida asosan mahalliy millat vakillari o'zbeklar va tojiklar yuqori o'rinni egallasada, shuningdek, beklilikning ma'muriy

markazlar hisoblangan shaharlarda boshqa etnik guruhlar istiqomat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonlar shu bilan izohlanadiki, bekliklar ma'muriy markazlarida turli davrlarda o'zaro savdo-aloqalari, va boshqa omillar natijasida aholi vakillarining migratsion aloqalari ham amalga oshirib turilgan. Bu jarayonlar natijasida aholining milliy etnik tarkibining xilma-xil tarzda ortib borishiga ham o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Холикова Р.Э. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. – Т: Ўқитувчи, 2005. – Б. 89.
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М: Наука, 1976. – С. 74.
3. Ўзбекистон Республикаси Миллий Архиви, И-126-жамгарма, 2-рўйхат, 71-иш, 113-варақ
4. Логофет Д. Бухарское ханство под русским протекторатом. -СПб., 1911. -40 с.
5. Туреунов С. ва бошқ. Шеробод тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Янги нашр, 2014. – Б.113.
6. Очилдиев Ф.Б. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар. – Т: Тафаккур, 2008. – Б.64.
7. Ўзбекистон Миллий Архиви, 2-жамгарма,

- 1-рўйхат, 351-иш, 17-варақ
8. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 145 – 148.
9. Ўзбекистон Миллий Архиви, 2-жамгарма, 1-рўйхат, 351-иш, 64-варақ
10. Ўзбекистон Миллий Архиви, 2-жамгарма, 1-рўйхат, 351-иш, 89-варақ
11. Кап. Васильев. Статистические материалы для описания Бухары. Бекства Шерабадское часть Бойсунского. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. 57. – СПб., 1894. – С.236
12. Материалы всесоюзной переписи населения 1926 г. В Узбекской ССР. Вып. I. Поселенные итоги. Г.Самарканд Издание ЦСУ УЗССР. 1927. С-64
13. Қобилов.Э.Сурхон воҳаси хўжалиги-Тошкент. Академнашр.2012.-Б 48.
14. ИскандаровБ. И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Ч. I. – Душанбе, 1962. –С 247
15. Ўзбекистонни районлаштириш ишидаги материаллар. Биринчи бўлак. –Самарканд-Тошкент, 1926 Б 147;
16. Қаюмов А.Р. Шеробод воҳаси аҳолисининг этник таркиби (XIX аср-XX аср бошлари)|| Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998.№3, 36-бет.
17. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: АН УЗССР, 1958. – С. 233

